

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeve Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmدا innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJIDA KORPORATIV BOSHQARUV FAOLIYATINING ROLI

Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich

TDIU "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv faoliyatida strategik maqsadlarni belgilash va ularning bajarilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tuzilma, shuningdek, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini yaratish masalalari ko'rib chiqilgan. Bank boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar majmuasi, korporativ boshqaruv organlarining vakolat va javobgarliklarini raqamli iqtisodiyot sharoitida taqsimlash muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, raqobat, boshqaruv tizimi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, aksiyadorlik jamiyati.

Abstract: This article addresses the necessary organizational structure for defining strategic goals in corporate governance under the digital economy, as well as overseeing their achievement. It also examines the relationships between bank management bodies and other stakeholders, focusing on the distribution of powers and responsibilities within corporate governance bodies and creating opportunities for decision-making in the context of the digital economy.

Key words: digital economy, corporate governance, competition, management system, general meeting of shareholders, joint-stock company.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы, связанные с необходимостью организационной структуры для определения стратегических целей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, контроля за их достижением, а также взаимоотношений между органами управления банка и заинтересованными сторонами. Особое внимание уделено распределению полномочий и ответственности органов корпоративного управления в условиях цифровой экономики и созданию возможностей для принятия управленческих решений.

Ключевые слова: цифровая экономика, корпоративное управление, конкуренция, система управления, общее собрание акционеров, акционерное общество.

KIRISH

Hozirgi kunda milliy aksiyadorlik jamiyatlarida shakllangan korporativ boshqaruv respublikamiz mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida sezilarli rivojlandi. Biroq, bu rivojlanish jahon amaliyotidagi korporativ boshqaruvning evolyutsion taraqqiyoti bilan taqqoslanganda qisqa muddat ichida sifat jihatdan jadal takomillashganini ko'rish mumkin. Korporativ boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyotining taraqqiyoti va iqtisodiy tizimning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, undagi institutsional birliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mexanizmi asosiy ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning tuzilmasini o'zgartirib, an'anaviy biznes modellarini yangilaydi va raqobatbardoshlikni oshirib, bozorlardagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Ayni paytda, mamlakatimizda chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish, shuningdek, Prezidentning 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmoni asosida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar dasturi doirasida milliy iqtisodiyotni isloh qilishning ilmiy asoslarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Korporativ boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda har bir rahbar xodimning muhim va ustuvor vazifasiga aylangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish ko'p mablag', infratuzilma va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Ammo bu ishni bugun boshlamasak, qachon boshlaymiz? Ertaga juda kech bo'ladi. Shu sababli raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi."

Shuni alohida ta'kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida korporativ boshqaruv masalalarining innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligi turli tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Amerikalik olimlar H. Sarpa, A. Subramanian va K. Subramanian o'z nazariyalarida korporativ boshqaruvning ichki va tashqi mexanizmlari qanday qilib innovatsiyalarga ta'sir qilishini o'rganganlar. Ular tashqi korporativ boshqaruv mexanizmlari (korporativ nazorat bozori) va ichki boshqaruv mexanizmlari (menejerlik shartnomalari)ning o'zaro bog'liqligi menejerlar tomonidan innovatsiyalarni ishlab chiqish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotlashgan.

Shuningdek, amerikalik olim H. Shadab o'z tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va innovatsiyalar o'rta-dagi bog'liqlikni o'rganib, boshqaruv tuzilmasi, aksiyadorlik kapitali qiymati va ichki nazorat masalalarini ham yoritib bergan. U AQSh korporativ qonunchiligining korporatsiyalarning innovatsion faoliyatiga qanday ta'sir qilganini tahlil qilgan.

Raqamli iqtisodiyotni xizmat ko'rsatish sohasida shakllantirish va joriy etish murakkab jarayon bo'lib, bu ko'plab omillarga bog'liq. Yetakchi xorijlik olimlar Don Topskott, Aleks Topskott, Pol Vigna va Maykl Keysi raqamli innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni haqida turlicha fikrlar bildirganlar. Jumladan, 1995-yilda Don Topskott o'zining "Raqamli iqtisod: intellektual tarmoq asridagi va'da va havf" kitobida "raqamli iqtisodiyot" atamasini ilk bor ishlatgan.

Mualliflar ko'rib chiqilgan omillarni amalga oshirishda korporativ boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonlariga yetarlicha e'tibor bermagandek tuyuladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturida raqamli iqtisodiyotga alohida urg'u berilib: "Raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida, raqamli ma'lumotlar va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash hamda tahlil qilish orqali an'anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin", deb ta'kidlanadi.

Shu o'rinda mamlakatimiz olimlari, jumladan, S. G'ulomov, T. Shodiev, Yo. Abdullaev, B. Berkinov va K. Abdurahmonovlar iqtisodiyotda raqamli va axborot texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, innovatsiyalarni rivojlantirish borasida katta hissa qo'shganlar.

Shuni tan olish kerakki, o'tgan yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvida davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan aralashuvlar ko'p kuzatilgan. Bozor tendentsiyalariga moslashuvchanlik va sezgirlik darajasi yetarlicha bo'lmagan holatlar ham mavjud edi. Xususan, davlat korxonalarini korporativ boshqarishda bozor mexanizmlarini ishlab chiqish va ularga zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini, jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvni rivojlantirishni ta'minlovchi manbalar tahliliga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili hamda farazni asoslash usullari qo'llangan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar korxonalar va jismoniy shaxslarga mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi. Shuningdek, o'zaro muloqotni tez va oson tashkil etishga imkoniyat yaratib, raqamli yoki elektron iqtisodiyotning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

"Raqamlashtirish" – bu nisbatan yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish jarayonlariga IT echimlarini jalb etishni, shu jumladan internetdan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni anglatadi.

Raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan asosiy farqlari quyidagicha misol bilan tushuntiriladi: xaridor noutbukni bozorga borib, naqd pul bilan sotib olsa, bu an'anaviy iqtisodiyotdir. Ammo xaridor Telegram orqali botdan noutbuk tanlab, elektron to'lov tizimi orqali to'lov qilsa va tovarni yetkazib berish xizmatidan foydalansa,



bu raqamli iqtisodiyotdir. Bu oddiy misol orqali tushuntirilgan bo'lsa-da, aslida hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichida yashayapmiz. Masalan, maoshlarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali xizmatlarga haq to'laymiz, soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshiramiz va kartalar o'rtasida pul o'tkazamiz.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan yaratilishi kerak bo'lgan mutlaqo yangi iqtisodiyot emas. Balki, mavjud iqtisodiyotni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali yangicha tizimga o'tkazishdir.

Belgilari:

- Yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- Elektron hujjat almashinuvi;
- Buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyasi;
- Ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- Korporativ tarmoqlar.


Qulayliklari:

1. To'lov xarajatlari kamayadi (bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida tez va ko'proq ma'lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlar jahon bozoriga tezroq kirib boradi.
4. Iste'molchilarning fikrini tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishini tanlagani axborot texnologiyalari va elektron hujjatlar aylanmasida yangi imkoniyatlar ochib berdi. "Raqamli texnologiyalar" tomon burilish jahon internet tarmog'i va sifatli aloqa vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi qanday? Bugungi kunda Telegram botlari orqali oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish keng tarqalgan. Internet do'konlar va elektron to'lov tizimlari ham faol rivojlanmoqda, bu esa fuqarolarning elektron bitimlarga bo'lgan ishonchini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda foydalanuvchilar asosan kichik xarajatlarni talab qiladigan bitimlarni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, o'rtacha xarid hajmi va yirik iqtisodiy bitimlarni raqamli texnologiyalar orqali bajarish hali rivojlanish bosqichida turibdi.

Pandemiya davrida internet infratuzilmasining rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlantirishiga katta turtki berdi. Raqamli iqtisodiyotning korporativ boshqaruvda keng qo'llanilishi iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashning muhim omillaridan biri bo'lib qoldi. Innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni joriy qilish jarayonlari tezlashib, samarali korporativ boshqaruv zaruriyati yana bir bor tasdiqlandi.

Nazariy jihatdan olib qaranganda, raqamli iqtisodiyot sohasida innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar va uslubiy yondashuvlar tahlil qilindi.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sohasida innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar¹.

1 Muallif tomonidan mustaqil tuzildi.



Raqamli iqtisodiyot sohasida innovatsion jarayonlarning rivojlanishida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash uchun taklif etilgan uslubiyot asosida bugungi kundagi holat tahlil qilindi (1-jadval). Ushbu uslubiyat, innovatsion jarayonlar har bir bosqichida axborot bilan ta'minlash va jarayonlarni monitoring qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar guruhini shakllantirish modelini o'z ichiga oladi.

Model quyidagi ko'rsatkichlar orqali monitoring qilinadi:

1. Muammoni aniqlash va innovatsion g'oyani shakllantirish bosqichi ko'rsatkichlari:

- Onlayn murojaatlarni tahlil qilish va muammoni aniqlash;
- Raqobatchilarni o'rganish;
- Xorijiy kompaniyalar faoliyatini tahlil qilish.

2. Texnik jihatdan hujjatlarni ishlab chiqish va tayyorlash bosqichi ko'rsatkichlari:

- Innovatsion jarayonlar boshqaruvi konsepsiyasini rejalashtirish darajasi;
- Boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqish va tashkillashtirish darajasi;
- Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish darajasi.

3. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishni boshqarish bosqichi ko'rsatkichlari:

- Innovatsion jarayonlarni boshqarish shaklini tanlash, ishchi guruhni shakllantirish va mas'ullarni belgilash;
- Innovatsion jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solish;
- Innovatsion jarayonlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga taqdim qilish.

4. Innovatsion jarayonlar natijasini taqdim etish ko'rsatkichlari:

- Demo versiyani ishga tushirish;
- Test rejimida marketing tadqiqotlarini o'tkazish.

5. Texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish ko'rsatkichlari:

- Ommaviy taqdim etish yo'nalishlarini belgilash;
- Transfer va reklama xarajatlariga investitsiyalar jalb etish.

Ushbu model innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish va monitoring qilish imkoniyatini beradi, bu esa korporativ boshqaruv tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, raqamli iqtisodiyot sohasiga zamonaviy korporativ boshqaruv jarayonlarini tezkor joriy etish, ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda, iqtisodiyotimiz rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Globallashtirish sharoitida dunyoning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishi mamlakatimizning islohotlarini tez va sifatli amalga oshirish, jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan yondashuvni taqozo etadi.

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlagani axborot texnologiyalari va elektron hujjatlar aylanmasida yangi yo'nalishlarni ochib beradi. Butun jahon internet tarmog'i va sifatli aloqa infratuzilmasining rivojlanishi raqamli texnologiyalarga burilish uchun mustahkam asos bo'ldi.

Biroq, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalash va uning hajmini oshirish borasida, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish yo'lida yetarlicha ishlar olib borilmayapti.

Innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida innovatsion jarayonlarni boshqarishni ilmiy-amaliy qoidalar asosida amalga oshirish va korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish uchun kompaniyalarning tashkiliy tuzilmalariga bozor talablari asosida o'zgartirishlar kiritish lozim. Raqamli iqtisodiyotning jahon miqyosidagi o'sishi sababli, har qanday davlat loyihasi yagona kodlash tizimi va boshqaruvga oid axborotni aniqlash asosida kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim va murakkab bosqich bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish, shuningdek, odamlar va biznesning davlat bilan o'zaro muloqotiga sarflanadigan xarajatlarni qisqartirishdir.

Taklif qilingan chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi va aksiyalashtirish jarayonining chuqurlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz/docs/-2635197
2. Sarpa H., Subramanian A., Subramanian K.V. Corporate Governance and Innovation: Theory and Evidence. Journal of Financial and Quantitative Analysis, 2014, vol. 49, issue 4, pp. 957-1003.
3. Shadab H.B. Innovation and Corporate Governance: The Impact of Sarbanes-Oxley. U. Pa. Journal of Business and Employment Law, 2008, vol. 10:4, pp. 955-1008.



4. Melkumov Ya.S. Investitsii: Uchebnoe posobie. M.: INFRA-M, 2003.
5. Duskobilov U. Impact of Economic Regulation through Monetary Policy: Impact Analysis of Monetary Policy Tools on Economic Stability in Uzbekistan. International Journal of Innovation and Economic Development, 2017, vol. 3(5), pp. 65-69.
6. Don Tapscott, Alex Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 p.
7. Carmen Babaita, Gabriela Sipos, Andreia Ispas, Andrea Nagy. Leadership Style and Culture for Innovation in Hotel Industry. Economic Department-Tourism Services, West University of Timisoara, Faculty of Economics and Business Administration, Timisoara, Romania, 2010, p. 650.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

